

**OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI BARTARAF ETISHDA HORIJY  
DAVLATLAR TAJRIBASI.**

*Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi  
Nazarov Farrux Yakubovich*

**Annotatsiya:** Bugungi tahlikali zamonda davlat va jamiyat barqaror rivojlanishi uchun eng muhim bo'lgan shartlaridan biri tinch va osoyishta zamin bo'lmos'i kerak desak yanglishmagan bo'lamiz. Ushbu maqolamiz dunyoning turli mintaqalarida kechayotgan davlatlar o'rtaсидagi nizolar, qurolli mojarolar va norozilik namoishlari, ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf qilish yo'lishda bajarilayotgan ishlar haqida bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** omaviy tartibsizlikning sabablari, horijda sodir bo'lgan voqealar sanalari, horij davlatlarining masul bo'linmalari, horij davlatlari qollagan bartaraf etish yechimlari.

Mavzu avvalida ommaviy tartibsizlik o'zi nima va uni yuzaga keltiruvchi omillarni ba'zilarini keltirishni lozim deb topdik..

Bu xaqda yuridik fanlari do'ktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist M.X.Rustambaev o'zining "O'zbekiston Respublikasining jinoyat ko'deksiga sharxlar" kitobida:

**Ommaviy tartibsizliklar-** o'rnatilgan jamoat tartibi va xavfsizligini ommaviy joylarda buzishda ifodalangan ko'plab insonlarning boshqarilmaydigan xarakati"<sup>[1]</sup> deb yozadi.

Ommaviy tartibsizlik nima ekanligiga aniqlik kiritgandan so'ng uni yuzaga keltiruvchi omillarni ham sanab o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi, bunga misol qilib quyidagilarni keltirib o'tamiz:

- Xalqning davlat boshqaruvidan noroziligi.
- Insonlar o'rtaсиda millatchilik va irqchilikning kuchayishi.
- So'z va din erkiniligi kam yoki umuman yo'qligi va x.k.

Shular jumlasidan.

Berib o'tilgan malumotlar ko'rib chiqilayotgan mavzuni nima ekanligi va qanday yuzaga kelishiga boshlang'ich tushuncha beradi. Ammo ommaviy taribsizlik kabi katta muamoni xal etish, oldini olish va bartaraf etishga kamlik qiladi.

Ushbu muammolarning oldi olinmasa, keginchalik katta talofatlar qoldiruvchi g'alayonga aylanishi turgan gap. Bunday vaziyatlar asosan yuqorida sanab o'tilgan sabablar tufayli yuzaga keladi, ammo buni natijasida xalq ham davlat ham katta talofat ko'radi, unday bo'lsa shu va shunga o'xshash g'alayonlardan manfaat ko'rivchu tomon kim degan savolga esa jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi mayor

Xakimov Mirjalol Abdug’opirovich o‘zining OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARGA QARSHI KURASH FAOLIYATINI O‘RGANISHDAGI ILMIY YONDASHUVLAR nomli maqolasida quyodagi fikrni bildirib o‘tgan: “Hozirgi vaqtida ommaviy tartibsizliklarni siyosiy yondashuv asosida taddiq etish dolzarblashib bormoqda. Chunki tashqi faktorlar, yoki mamlakat ichidagi destruktiv kuchlar, ekstremistik tashkilotlar o‘z maqsadlari yo‘lida tartibsizliklardan muhim vosita sifatida foydalanishmoqda”[2].

Bu borada noxush bo‘lasada, tajribaga ega bo‘lgan horij mamlakatlarida sodir bo‘lgan voqealarni sanab o‘tishni lozim topdik.

1. Belgorod 24 dekabr 2023
2. Irlandiya 23 noyabr 2023
3. Fransiya 28 iyun 2023
4. Pokiston 10 may 2023 va x.k.

Bunga o‘xhash xolatlar afsuski o‘zimizdaxam bolgan:

1. Toshkent 16 fevral 1999yil
2. Andijon 13may 2005yil
3. Nukus 1-2 iyyul 2022yil.

O mavviy tartibsizlikni keltirib chiqaruvchu omillar va bundan manfaat ko‘rvuchi asosiy kuchlarni aniqlab oldik, endi esa bunday xolatlarda qanday chora- tadbir qo‘llash kerakligi xaqida aytib o‘tamiz.

Tartibsizlik g‘alayonni keltirib chiqaradi, g‘alayonni esa so‘zlar bilan tinchlantirib bo‘lamaydi va shuning uchun kuch tuzilmalari tomonidan kuch ishlatalishiga olib keladi.

Xar bir davlatning bunday vaziyatlarda ish olib boruvchi bo‘linmalari mavjud, masalan:

- Rossiya- “Alfa”, “O.M.O.N”  
A.Q.Sh.- “SEAL”, “Delta Force”  
Germaniya- “GSG 9”  
Ispaniya- “Unidad de Operaciones Especiales”  
Frantsiya- “CRS”  
Buyuk Britaniya- “SAS”, “SBS”

Bulardan ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan mamlakatlar kuch tuzilmalarinig amalga oshirgan xarakatlari

2012 yil 6 mayda Moskvada bo‘lip o‘tgan “millionlar marshida” 12759 jamoat tartibini saqlash tuzulmalari xizmatchilari jalb qilingan, ulardan 7609- politsiya va O.M.O.N xadimlari, 100- Y.X.X inspektorlari, 4650- xarbiy xizmatchi va 400-ko‘ngillilar tashkil qilingan bo‘lib, ular quyidagilar bilan qurollintirilgan:

- “PR-73”- rezina tayoqlari  
“Дрейф”- aerozol tutunli qo‘l granatasi

“Заря-2”- oskolkasiz nur-tovushli granatasi

“Факел”- ko‘p elementli nur-tovushli granatasi

“Гвоздь”- 40mm ko‘zdan yosh oqizuvchi gaz bilan to‘ldirilgan granatasi

“GM-94”- magazinli granatamyot

“PB-4SP”- pistoleti

“KS-23”- “черемухи-6” va 23millimetrlig “волна-p” travamatik o‘qlarini otishga mo‘ljallangan maxsus karabini.

Miting uchun ajiratilgan joy 26 660 kishilik sig‘imiga ega bolsada miting ishtirokchilari soni 50mingdan ortgan[3].

2005 yil 27 oktabr oyida kelib chiqishi Tunis va Mavriddan bo‘lgan ikki o‘spirinning o‘limi (politsiyadan transformator budkasida yashiringan) sababli shu yilning 28 oktabr kuni Parij yaqinidagi Klishi-su-Bua shaxarchasida tartibsizliklar boshlanadi. Tartibsizliklar har tunda avj olishi tufayli Parij atrofiga (Olne-su-Bua, Sen-Deni) tarqagan. 2-3- noyabrga o‘tar kechasi Rossiyaning Yaroslavl shaxridan kelgan turistlar avtobusi o‘gurlangan va yoqib yuborilgan, turistlardan xech kim jabirlanmagan. 4-noyabr Parij atrofidaga shaxarlarda 500 avtomobil yoqib yuborilgan. Premyer Ministr Domenik de Vilpen ozining rasmiy rezidensiyasida xalok bo‘lgan o‘smirlarning yaqinlarini “etnik kamchiliklar yetakchisi”ni qabul qilish bilan tartibsizliklarni to‘xtatmoqchi bo‘lgan, ammo bu vaziyatni yumshata olmadni.

Ichki ishlar vaziri Nikolya Sarkozy tartibsizliklarni bartaraf etish uchun qattiq choralar ko‘rdi. U asosan "muhojirlar" yashaydigan Parij atrofidagi 25 hudlaridagi barcha CRS bo‘linmalarini safarbar qilganini e’lon qildi. Tartibsizliklarni bartaraf etish uchun politsiya suv otar quroq qo’llashi va rezina o’qlaridan fotdalanishiga to‘g’ri keldi. Bir necha o’nlab odamlar xibsga olingan. Tartibsizliklar markazlari- Val-d’Oise Ivelin shahridagi Sen-Sen-Denis bo‘limlari. Umuman olganda, poytaxt mintaqasida 90 ga yaqin munitsipal tuzilmalar tartibsizliklar bilan qamrab olingan. Parijning shimoli-g’arbidagi Trap shahrida yong’in natijasida avtobus parkida 27 ta avtobus yonib ketdi. Turli tumanlarda ma’muriy binolar, maktablar, savdo muassasalari, politsiya komissarliklari va uchastkalariga hujumlar qayd etilgan.

13-noyabrdan ommaviy tartibsizlikda ishtirok etgan horijliklar deportatsiya qilinishi boshlandi[4].

Bunga o’xshash voqealar jaxon tarixida juda ko‘p uchraydi, ammo osoyishta keljakga ulardan to‘g’ri xulosa chiqarmasdan erishib bo’lmagligini ta’kidlab o’tishimiz joiz.

### Xulosa:

Xulosa o’rnida shuni aytmoqchimizki, toki davlat muassasalari va xavfsizlik o’rganlari, xalq va jamiyat bilgan shaffof aloqada bo’lmas ekan bunday tartibsizliklar, g’alayonlar va urushlarga chek qo'yib bo'lmaydi.

Ommaviy tartibsizlikni to'tatish uchun esa soxa vakillari yetarli darajada qurol-yaroq bilan ta'minlanishi va bunday xolatlarda ko'rildigani chora - tadbirlar haqida bilim va salohiyatga ega bo'lishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism. Rustamboev M.X. 2016. 698-b.
2. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/download/12724/8736/8464>
3. <https://novayagazeta.ru/articles/2013/05/05/54596-6-maya-sekretnyy-instruktazh-omon-gotovili-otrazhat-shturm-kremlja>
4. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Массовые\\_беспорядки\\_во\\_Франции\\_\(2005\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Массовые_беспорядки_во_Франции_(2005))

**Foyda lanilgan adabiyotlar:**

5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism. Rustamboev M.X. 2016. 698-b.
6. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/download/12724/8736/8464>
7. <https://novayagazeta.ru/articles/2013/05/05/54596-6-maya-sekretnyy-instruktazh-omon-gotovili-otrazhat-shturm-kremlja>